

XALQCHILLIK, MILLIY URF-ODATLAR “MAYSARANING ISHI” OPERASI NIGOHIDA

Ruxshona Atkiyoyeva

Farg‘ona Davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti “Musiqiy ta’lim” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor, XX asr o‘zbek musiqa san’atini o‘z novatorligi bilan lol qoldirgan va uning rivojlanishi uchun ulkan hissa qo‘shtigan Sulaymon Yudakovning ilk komedik operasi “Maysaraning ishi” yuzasidan fikr va mulohazalar keltiriladi. Qolaversa, ushbu operaning o‘zbek mintaliteti ustidagi ahamiyatli nuqtalari, o‘zbek urf-odatlari, xalqchilligi va davr mashaqqatlari musiqa tahlili asosida atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kompozitor, opera, ariya, novatorlik, komedik, monumental, dramatik, qahramonona opera, ariozo, operetta, “100 onepoe”

XX asrga kelib o‘zbek opera san’ati keskin burilishlarga yuz tutdi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yangi janrlarni qo’llash edi. Ushbu davrga kelib lirik-tragedik, monumental, dramatik, va qahromonona shukuhli operalar tobora keng ildiz ota boshladи. Biroq, bulardan eng ko‘zga tashlangan janr komediya janri bo‘ldi. Sababi, kompozitorlar ushbu janr orqali xalqning boshdan kechirgan qiyinchiliklarini, boy amaldorlarning insonlarga qilayotgan nohaklilarini komediya orqali ko‘rsata boshladи. “Hazilning tagi zil” - deganlaridek, ushbu janrni tushunganlar ham bo‘ldi, haqiqatni to‘g‘ri qabul qila olmay o‘zlarini tushunmaganlikka olgan amaldorlar ham bo‘ldi. Biroq turli to‘sqliarga qaramay ushbu janr bugungi kunga kelib eng ommabop janr sifatida e’tirof etildi. Bunga misol tariqasida o‘zbek operasini dunyoga tanitishda muhim o‘ringa ega, chet-elning “100 оперов”¹ kitobining sahifasidan joy olgan mashhur “Maysaraning ishi” operasidir.

Sulaymon Yudakov ushbu operani 1959-yilda yozib nihoyalagan. Aynan shu yildan boshlab opera sahnalashtirila boshlangan. Ushbu yirik asar voqeilikning qizg‘in rivojlanishi orqali tomoshabinni o‘ziga jalb qila olgan. Beva ayol Maysaraning hovlisida yosh sevishganlar uchrashadilar: Maysaraning jiyani cho‘pon Cho‘ponali va go‘zal qiz Oyxon. Ularning o‘yin-kulgusini qari qozi bilan qo‘riqchilar boshlig‘i Hoji Darg‘a ko‘rib qoladilar. Qonun peshvolari Cho‘ponni shariat qonunlarini buzganlikda ayblab qamoqqa olib, shu orqali go‘zal Oyxonga erishmoqchi bo‘ladilar. Ular yuborgan qo‘riqchilar Maysaraning hovlisiga bostirib kirib, Maysarani qamoqqa

¹ “100 оперов” - Rossiya milliy madaniyati ko‘rgazmasi muzeyida saqlanadigan kitob bo‘lib, bunda butun dunyo bo‘yicha eng ko‘p ijro qilinadigan, voqeilik rivoji tomonlama qiziq va saviya tomonlama yuqori bo‘lgan turli davlatlarning operalari milliy arxiv sifatida saqlanadi.



oladilar. Paytdan foydalangan qozi esa sandiqqa berkitib qo‘yilgan Oyxonni o‘g‘irlab ketadi. Maysarani esa Qozining uyidagi yerto‘laga qamab qo‘yishadi.

Cho‘ponali uning yoniga kelib, bu yerdan qochishni aytadi. Lekin Maysara Oyxonni ozod qilmaguncha bu yerdan ketmasligini aytadi. Maysaraning qarzlaridan kechsa, uni ozod qilishga va’da berishini aytadi. Qozi Maysaraga Oyxonni itoatsizlik qilishidan arz qiladi. Maysara qoziga qizni ko‘ndirishini aytadi va shu bahona Oyxon bilan uchrashib, o‘zining hiyla bilan tuzilgan rejasidan boxabar qilmoqchi bo‘ladi. Maysaraning uyida “aslzoda mehmonlar”ni kutib olishga tayyorgarlik ketyapti. Birinchi bo‘lib qozi keladi. U endi o‘tirgan edi hamki, darvoza taqillab qoladi. Hayajonlangan Maysara kutilmaganda jiyani kelib qolganini aytadi, qo‘rqib ketgan qozini Maysara ho‘kiz terisiga o‘raydi. Shu tariqa hiylagar Maysara Oyxonning sevgisiga boshqa da‘vogarlar bilan ham shu tariqa yo‘l tutadi.²



Hidayat³ ayollar kiyimini kiyadi, Darg‘a un solingan sandiqqa tushadi. Opera yoshlarning qo‘sish va raqlari bilan yakunlanadi. Barcha Maysaraning donoligiga qoyil qolib, uni sharaflaydi.

² N.Yuldasheva, N.Rahmatova. O’zbek musiqa ijodiyoti. O’quv qo’llanma materiali.

³ Hidayatxon - kompozitor tomonida asar mobaynida bironta ham ushbu personaj uchun ariya yozilmagan. Hidayatxonni asar rivoji davomida 1 donagina ijro qilinadigan kichik musiqiy qismi mavjud. Va u “Hidayatxon kupleti” deb nomalanadi. Ushbu personajga ariya yozilmaganligini asosiy sababini kompozitor ariyani unga noloyiq deb bilishida deya aytilgan.



Operaning e'tiborli tomoni uning xalq me'rosi bilan uzviy bog'liqligi, uning mohiyati alohida "sitata"larni qo'llashdagina emas, balki xalqchillik tamoyillarini qayta ishlab kiritilganligida hamdir. Asarda o'zbek xalq ijodiyotining turli janrlari qo'llanilgan. Operaning musiqiy tili ham o'zbek xalq qo'shiqlarining lad va metr-ritmik xususiyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.



Kompozitor operada xalq kuylarining asl namunalaridan foydalangan. Masalan, Maysaraning "Bola bola" (II parda) qo'shig'ida Yudakov "xalq sitatasasi"ni kiritgan (so'zlari ham o'zgartirilmagan).

Xalq musiqa ijodiyoti namunalari komik operani inobatga olgan holda kiritilgan va asar qahramonlarining xarakterini to'g'ri ifodalay olgan.

Asarning yakka nomerlarida, ansambl, xor, va orkestr epizodlarida ham xalq kuylari qo'llanilgan. Qahramonlar partiyalarida ko'proq jonli, quvnoq xalq laparlari uchraydi. Lapar xarakteri jihatidan komik opera epizodlariga mos keladi. Lirik sahnalarida ham (I parda Oyxon va Cho'pon dueti, II parda Maysara va Mullado'st dueti) satirik sahnalarda ham (II parda Maysara va Ho'ja dueti) lapar janri qo'llanilgan.⁴

Musiqada operaning bosh qahramoni to'liq ifodalangan. Ariozo va ansambl vositasida kompozitor Maysaraning ko'p qirrali obrazini yaratadi, ya'ni, uning yaqinlar davrasida dilxush va ochiq yuz, og'ir sinov damlarida esa bukilmas, irodali, serharakat ayol ekanligini tasvirlaydi. Uning bosh mavzusi Hamzaning "Hoy ishchilar" qo'shig'i zaminida yuzaga kelgan.

⁴ O'zbek mumtoz musiqasi. R.S.Abdullayev. Yangi nashr. 2008-y.



Musiqada Maysara obrazining boshqa tomoni, ya’ni uning “ishlari” bilan bog‘liq tomonlari ham to‘liq ifodalangan. Yengil, harakatchan raqs ritmlari bilan sug‘orilgan laparsimon qisqa kuylar bosh ifoda vositasi sifatida ham xizmat qiladi.



Oyxon va Cho‘pon partiyalari melodik jihatdan boy bo‘lib, Maysara obrazidan farqli o‘laroq bu qahramonlar leytmotiv ko‘rinishidagi tavsiflarga ega emas. Operaning birinchi ko‘rinishi Oyxon va Cho‘ponalining lirik chiqishi orqali boshlanadi.

Asardagi ijobiy qahramonlar: Maysara, Cho‘ponali, Oyxon obrazlarini ifodalovchi musiqa xushohangligi, samimiyligi bilan maftun etsa, bularga qarama-qarshi qo‘yilgan Qozi obrazi shavqatsiz qilib ko‘rsatilgan. Uning partiyasida rechetativ asos qilib olingan. Qozining yakkayu-yagona nomeri “Mu-u” qo‘srig‘i, ho‘kiz mo‘rashiga taqlidan intonatsiyalarga asoslangan.⁵

Hidoyatxon va Darg‘a partiyalarining umumiyligi tomonlari ko‘p. Ular kuplet shaklidagi qisqa qo‘sriqsimon kuylarga asoslangan. Bu ikki obraz ham Qozi obrazi kabi o‘zgarmaydi va rivojlanmaydi.

Mullado‘st partiyasi ham sodda, kuplet tuzilishidagi qator folklor namunalarini eslatuvchi kuylar zaminida yuzaga kelgan. Qarilik chog‘ida bo‘lsa ham Maysaraga uylanish orzusida yurgan Mullado‘stning hazil qo‘sriqlari kuyi birinchi bor opera muqaddimasida yangraydi, u butun asar uchun epigraf ahamiyatiga ega bo‘ladi.⁶

Operaning musiqali dramaturgiyasida ansambl va xorlar muhim o‘rin egallagan. Birinchi pardada xalq xori hamda soqchilar xori ishtirot etadi. Ikkinci pardada xor sahna ortida kuylaydi, opera xotimasida ham xor yetakchi rol o‘ynaydi. “Maysaraning ishi” operasining yuqorida aytib o‘tilganidek xalqchilligi, asl hajviyligi, badiiy vositalarining o‘ziga xosligi uning nafaqat O‘zbekistonda, balki chet davlatlarida ham

⁵ Qozi leytmotivi kamyob ovozlardan biri bo‘lgan bas-bariton ovoz uchun mo’ljallab yozilgan yagona nomerdir.

⁶ T.Solomonova. O‘zbek musiqasi tarixi. 138-bet.



shuhrat qozonishiga sabab bo‘ldi. Kompozitor tomonidan operettaga aylantirilgan bu asar “Maysaraning nayranglari” degan yangi nom bilan **Lodz teatri** (Polsha)da namoyish etilgan.⁷

Bugungi kunga kelib ushbu hajviy opera o‘z aslini yo‘qotmagan holda O‘zbekistonning turli hududlarida joylashgan teatrlarda ijro repertuarlarining ichida saqlanmoqda va xalqqa ijro mahorati orqali tanitilmoxda. Qolaversa, operadagi mashhur ariya (Hoji Darg‘a, Maysara, Oyxon, Cho‘ponali va boshqa ariya)lar ixtisoslashtirilgan san’at maktablari, texnikum va Konservatoriyaning vokal ijrochiligi artistligi bo‘limi o‘quvchilari tomonidan ijro qilinishi majburiy bo‘lgan asarlar ro‘yhatiga kirgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad noyob operaning aslini saqlab qolish, keng tadbiq qilish va kelajak avlodga yetkazib berishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Yuldasheva, N.Rahmatova O‘zbek musiqa ijodiyoti o‘quv qo‘llanmasi.
2. R.S.Abdullayev O‘zbek mumtoz musiqasi. Toshkent. Yangi nashr.2008-y.
3. T.Solomonova. O‘zbek musiqasi tarixi 138-140-betlar.
4. B.R.Yakubov Horijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti ma’ruzalar matni to‘plami.
5. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
6. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY*, 14(1).
7. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY*, 14(1).
8. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
9. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
10. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN’ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.

⁷ Asar 1957-yil 26-oktyabrda namoyish etilgan.



11. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA "LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
12. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
13. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
14. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
15. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
16. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
17. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
18. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
19. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(C4), 23-28.
20. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
21. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
22. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.
23. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.



24. Achildieva, M., Tursunbaev, B., Ikromova, F., Azimjonov, O., & Khaydarova, O. (2021). ABOUT MAHMUDJON TOJIBOEV'S PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 240-244.
25. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.

